



SOME THOUGHTS ON THE STUDY OF THE HISTORY OF KINDERGARTENS IN UZBEKISTAN IN THE 1920S-1940S

Yo. R. Tayronov

Candidate of Historical Sciences

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: yoqubjon.tayronov@bk.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: child rearing, kindergartens, toys, physical exercise, brochures, parents, school-age children, Bolsheviks, Soviet power, behavior, manners, neatness, cleanliness, institution.

Received: 14.02.25

Accepted: 16.02.25

Published: 18.02.25

Abstract: This article analyzes the organization of kindergartens in Uzbekistan, its problems, achievements and shortcomings, its formalization after the Bolsheviks came to power, as well as the publication of the first brochures in this area in the country based on sources. It was also noted that the education of children is important at any time. At the same time, for the first time, some treatises on preschool educational institutions were analyzed from a historical point of view and introduced into scientific circulation. And they contain valuable information on what to do in kindergartens and the comprehensive education of children.

O'ZBEKİSTONDA XX ASRNINIG 20-40 YILLARIDA BOLALAR BOĞ'CHALARI TARIXINING O'RGANILISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Yo. R. Tayronov

Tarix fanlari nomzodi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: yoqubjon.tayronov@bk.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: bolalar tarbiyasi, bog'chalar, o'yinchoqlar, jismoniy mashqlar, risolalar, ota-onalar, maktab yoshidagi bolalar, bolsheviklar, sovet hukumati, hulq, odob, ozodalik, tozalik, muassasa.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududida bolalar bog'chalarining qanday qilib tashkil etilgani, undagi muammolar, yutuq va kamchiliklar, bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng u rasmiy tus olgani, mamlakatda bu sohaga oid ilk risolalarining chop etilishi

manbalar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, bolalar tarbiyasi har qaysi davrda ham muhim ekanligi alohida aytib o‘tilgan. Shu bilan birga unda ba’zi maktabgacha ta’lim muassasalariga oid risolalar ilk bor tarixiy nuqtaiy-nazardan tahlil etilib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Va ularda bolalar bo‘gchalarida qilinadigan ishlar, bolalarni har tomonlama tarbiya qilish haqidagi qimmatli ma’lumotlar o‘rin olgan.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ПО ИЗУЧЕНИЮ ИСТОРИИ ДЕТСКИХ САДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1920-1940-Е ГОДЫ

Ё. Р. Тайронов

Кандидат исторических наук

*Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
Ташкент, Узбекистан*

E-mail: yoqubjon.tayronov@bk.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: воспитание детей, детские сады, игрушки, физические упражнения, брошюры, родители, дети школьного возраста, большевики, советская власть, поведение, манеры, опрятность, чистоплотность, учреждение.

Аннотация: В данной статье на основе источников анализируются организаций детских садов в Узбекистане, ее проблемы, достижения и недостатки, ее формализации после прихода к власти большевиков, а также издание первых брошюр в этой области в стране. Также было отмечено, что образование детей важно в любой период. При этом впервые были проанализированы с исторической точки зрения и введены в научный оборот некоторые трактаты о дошкольных образовательных учреждениях. И они содержат ценную информацию о том, чем заняться в детских садах и всестороннем образовании детей.

Mintaqada bolalar bog‘chalarining shakillanishi ilk bor XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga kela boshlagan. Mahalliy ziyorolar va sarmoyadorlarning tashabbuslari bilan turli tashkilotlar hamda jamiyatlar bolalar tarbiya muassasalarini tashkil eta boshlagan. Masalan, 1872 yilda “Jamiyati hayriya” tashkiloti a’zolari ilk bor ota-onasiz bolalar uchun ana shunday ta’lim maskanini tashkil etgan. Yoki 1891 yil “Bog‘dorchilik” jamiyati Toshkent shahridagi istrohat bog‘larning birida maktab yoshidagi bolalar uchun bog‘chalar ochib, unda turli arg‘umchoqlar, qayiqlar va ko‘ngil ochar o‘ynichoqlar va hatto alohida gulzor ham tashkil etgan. Qoloversa, bu davrga oid manbalarda bir qator bolalar tarbiyasiga bag‘ishlangan turkum maqolalar berib borilgan. Misol uchun 1908 yil “Turkiston viloyati gazeti” ning 89-sonida “Bola tarbiyasi” nomli maqola berilgan bo‘lib, unda bolalar 7-8 yoshdan maktabga kelishi va aynan shundan ularning tarbiyasi boshlanishi, lekin aslida bolalar tarbiyasi ota-onalarining tug‘ilganlaridanoq

boshlanishi haqida fikr yuritilgan[1]. Shuningdek, unda shifokorlar uch yoshli bolalarning eslab qolish qobilyati, zehni, xulqi va odobi, yaxshi ota-onalarning farzandlari tarbiyalı bo‘lishi urg‘ulangan.

Mustamlaka sharoitida Turkistonda garchi bolalar bog‘chasi tarixi va uning tarixshunoslik masalasi alohida o‘rganilmagan bo‘lsa ham ayrim davriy matbuotning sahifalarida bu soha haqidagi maqolalarni uchratish mumkin[2]. Lekin bu ma’lumotlar umumiylar xarakterga ega bo‘lib, ularda bolalarning yoshligidan qanday tarbiya qilishning sir-sinoatlari, musulmon o‘g‘il va qizlarning hunar o‘rganishlari hamda ta’lim olishlari bayon etilgan.

O‘zbekistondagi maktabgacha ta’lim muassasalari bolsheviklarni hokimiyat tepasiga kelishi bilan kengayib bordi. Sovet hukumati ishchilar sinfining shakllantirish yo‘lida ayollarning jamoat va xizmat ko‘rsatish sohalari, zavod hamda fabrikalarda ishlashga da‘vat etib, ularning farzandlarini maxsus muassasalarda tarbiyalash zarurligini ta’kidladi. Shu boisdan bu davrda mazkur sohani o‘rganishga alohida ahamiyat qaratildi. Mahalliy xalq vakillariga uni tushuntirish ishlariga katta e’tibor berildi. Qator ziyolilar o‘zlarining milliy matbuot sahifalaridagi chiqishlarida bog‘chalar va ularning tarixini ochib berishga harakat qildi. Ana shunday ijodkorlardan biri Xoji Muin bo‘lib, u “Mehnatkashlar tovushi” gazetasining 1919 yil 3-noyabr sonida “Bolalar bog‘chasi” nomli maqolasini e’lon qilgan[3]. Unda muallif mahalliy xalq vakillari garchi “maktab” degan so‘zni ko‘p eshitgan bo‘lsalarda, lekin, “*bolalar bog‘chasi*” haqida keraklicha tasavvurga ega emasligini ta’kidlagan va o‘z maqolasida uni imkon qadar yoritib berishga intilgan. Masalan, u bog‘chalar haqida shunday deydi: ““*Bolalar bog‘chasi*” shundoq bir binodirki, anda o‘quv yoshiga etmagan 4-6 yashar bolalarni yig‘ib asraydirlar. «*Bolalar bog‘chasi*» shaharning eng yaxshi va xushhavo erinda, bog‘chalik bir binoda bo‘ladir. Bolalar bog‘chasinda bolalarning sonlariga qarab uch-to‘rt nafar bola tarbiyasini yaxshi biladirgan tarbiyachilar qo‘yuladi. Bolalar kunda soat sakkizdan ikki yoxud to‘rtgacha u erda asralanarlar»”. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, bolsheviklar hukumatining dastlabki yillarda maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar to‘rt yoshtan boshlab olingan va ularning ba’zilari soat 14:00 gacha bog‘chalarda qolib keyin uylariga javob berilgan. Bizningcha, bular endigina bog‘chaga kelib unga o‘rgatilayotgan bolalar bo‘lsa kerak va Xoji Muin bularni ko‘rib shunday xulosaga kelgan.

Muallif maqolasida bog‘chalarda tarbiyachilar bolalarga bu vaqt orasida qanday mashg‘ulotlar o‘rgatishiga ham to‘xtalib, shunday degan, “*Tarbiyachilar bolalarni har qismi oddiy o‘yunlar bilan o‘ynatarlar, kog‘oz, loy va cho‘bdan har narsaning suratini va namunasini yasatarlar. Qalin kogozdan kesilgan yoxud cho‘bdan yasalg‘on harflarni bolalarning qo‘llarig‘a berib, o‘yun yo‘li bilan harflarni tanitarlar. Bolalarning o‘z a’zolari va ko‘zlariga ko‘runib turg‘on narsalarning otlari va sifatlarindan qisqa-qisqa so‘zlar yasab, bolalardan aytirarlar. Shul*

vosita bilan bolalarni to‘g‘ri va usta so ‘ylamakka o‘rgatarlar’. Bundan ma’lum bo‘lmoqdaki, garchi alohida dasturlar bo‘lmasa ham o‘scha vaqtidan bog‘chalardan bola tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratilib, ularning har tomonlama shakllantirishga harakat qilingan.

Shuningdek, Xoji Muin bog‘chalarda bolalarning ovqatlanishlari, ozodalik va tozalikka rivoja qilishlari, musiqa, she’rlar o‘rgatilishi, bolalarning chiniqtirish uchun kunning turli qismlarida jismoniy mashqlar o‘rgatilishini ham ta’kidlab, bu ularga ruhiy ozuqa ekanligini urg‘ulagan. Muallif xulosa o‘rnida bu maskanning farzand tarbiyasida bir onadan kam bo‘lmagan bilim o‘chog‘i ekanligini aytib o‘tgan. Xoji Muin bog‘chalar tarixi haqida ham to‘xtalib, rivojlangan mamlakatlarda anchadan buyon bu kabi tashkilotlar borligi va bolalar ularga muntazam qatnayotganligini aytgan. Turkistonda ham bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelganlaridan so‘ng bog‘chalar soni ortganligini, xususan, Toshkent shahrining eski qismida mahalliy xalq farzandlari uchun bir necha bolalar tarbiya maskanlari ochilganligini ta’kidlagan. Shuningdek, 1918 yil Samarqand shahrida rusiyabon xalq farzandlari uchun sobiq shahar gubernatorining bog‘ida, yahudiylar uchun esa shahardagi qizlar gimnaziyasining yonida bir necha mablag‘lar hisobiga ana shunday bolalar bog‘chalar tashkil etilganini bayon qilgan. Shaharning eski qismidagi shu kabi ta’lim maskani qurilishi haqida u shunday deydi: “...o‘tgan bahor eski shaharda Xayrobod qitasinda Quliboybachcha hovlisinda musulmonlar uchun ham bolalar bog‘chasi ochilib edi. Lekin bolalar bog‘chasi nima ekanligini xalq anglamadi, bolalarini yubormadilar. Bir talay xarajatlar bo‘shg‘a ketdi, tarbiyachilik uchun Toshkanddan kelturulgan, bolalar bog‘chasi kursig‘a o‘qug‘on tatar hamshiralarimiz bola yo‘qlig‘idan zerikib yana qaytib Toshkandg‘a ketdilar”. Demak, bundan ko‘rinadiki, tashabbuskor va tadbirkor Quliboy o‘zining hovlisida bolalar bog‘chasini ochgan va tarbiyachilarni Toshkent shahridan taklif qilgan. Ammo mahalliy aholi vakillari uchun bunday ta’lim maskanlari yangilik sifatida qabul qilinib, uning mohiyatiga etish ancha qiyin bo‘lgan. Shuning uchun bu bog‘chaga dastlab mahalladagi ota-onalar farzandlarini yubormagan va natijada tadbirkor bog‘chani yopishga majbur bo‘lgan. Biroq, shahar maorif sho‘basi uni qaytadan ochgan va Xoji Muin barchani 4-6 yoshli bolalarini mazkur bog‘chaga yuborishlarini so‘ragan. Chunki, shu vaqtgacha ham xalq farzandlarining otalari to‘rt-besh yoshdan boshlab maktabga olib borib, muallimga; “*Taqsim, o‘qumasada, aldab-suldab maktabda saqlang, uyda sho‘xliq qilib, onasini bezor qiladir. Ish kuchidan qoldiradir, ko‘chalarda, noqulay erlarda o‘ynaydir. Biron o‘sal bo‘lmasin deb qo‘rqaman. Maktabda tursa, man bozorda, onasi uyda xotirjam bo‘lamiz..*”-deb, berib kelgan. Muallif ta’kidlaydiki, demak yosh bolalarni yomon yo‘llardan va o‘yinlardan asrash, ularning vaqtlarini behudaga sarf qilmay to‘g‘ri taqsimlash uchun ham bolalar bog‘chasi zarur edi. Shuningdek, bu yoshdagи bolalarni ularning ota-onalari ko‘chada yoki uyda qarovsiz qoldirsa, ko‘chada bolalar bilan urishadi, axloqi buziladi shu narislarni oldini olish uchun bolalar bog‘chasi kerakdir. Ularning fanzand

tarbiyasidagi foydasi haqida Xoji Muin quyidagilarni ta'kidlaydi: “*birinchi foydasi bolalarni mazkur hollardan, ota-onani behuda tashvishlardan qutqarmoqdir. Ikkinci foydasi bolalarni yaxshi tarbiya qilib, lozim ishlarga o‘yun yo‘li bilan o‘rgatib, maktabdan burun maktabga hozir qilmoqdir*”. Bundan xulosa qilish mumkinki, o‘sha paytda ham bog‘chalarning asosiy maqsadlaridan biri bolalarni maktablarga tayyorlash bo‘lgan. Xoji Muin ota-onalarni yana bir bor bolalar bog‘chalariga farzandlarini olib kelishlariga da’vat etib, aholini go‘sht do‘koniga uni sotib olish uchun navbatda turgan kabi bog‘chalarga ham huddi shunday navbatlarni hosil qilishga chaqirgan. U so‘zining oxirida o‘lkadagi yahudiylarning bu boradagi tashabbuslarini olqishlagani holda, mahalliy xalq vakillarini ulardan o‘rnak olishga chorlagan.

Bolsheviklar hukumati mustahkamlanib borgani sari bu sohada alohida kichik-kichik risolalar, kitoblar, davriy matbuotda turkum maqolalar soni ortib bordi. Cho‘lpon[4], O‘roziy[5], T. Orifxonov[6] va boshqalar o‘zlarining gazetalardagi chiqishlarida ta’lim sohasi, xususan, bolalar bog‘chalar va fanzand tarbiyasi haqida qizg‘in fikrlarni ilgari surdilar hamda mahalliy xalq vakillariga uni kengroq tushuntirishga intildi. Xalq maorif komissariyati tarkibida aynan bog‘chalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va boshqarish bilan shug‘ullanadigan maktabgacha ta’lim sho‘basi tashkil etildi. Va u tuzilgan va yangi ochilayotgan maktabgacha ta’lim muassasalariga qo‘llanmalar va yo‘l ko‘rsatkichlarni nashr etib, targ‘ibot hamda tashviqot ishlarini jadallashtirib yubordi. Shu bo‘lim tomonidan 1922 yili Toshkent shahrida besh ming nusxada arab imlosi asosidagi eski o‘zbek tilida “Maktabgacha tarbiya muassasalari xususida murojaatli yo‘l ko‘rsatkich” chop etilgan[7]. Uning kirish qismida bu soha jamiyatda yangi ekanligi va bog‘chalar faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda bevosita adabiyotlarning yo‘qligi uchun chiqarilganligi ta’kidlangan. Nashrning asosiy vazifasi Rossiyyadagi maktabgacha tarbiya ishlarining rivojlanishi va taraqqiyotini ko‘rsatish hamda bolalar bog‘chalarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarga tavsiyalar berishdan iborat bo‘lgan. Shuningdek, unda maktabgacha ta’lim muassasalarining ochish tartibi, ularning jihozlanishi, o‘ynchoqlar bilan ta’minlanganligi, mutaxassislarning ish uslubi va beriladigan ta’lim-tarbiya jarayonlari yoritilgan.

Shuningdek, mazkur vaqtida chet ellarda maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tarjima ham qilina boshlangan. Ana shunday asarlardan biri L. Shlingerning “Bolalar bog‘chasida amaliy ish” deb nomlangan kitob bo‘lib, R. Samat(Shohidiy) tomonidan o‘zbek tiliga o‘grilagan va besh ming nusxada chop etilgan[8]. Mazkur asar arab imlosi asosidagi eski o‘zbek tilida bo‘lib, maktabgacha ta’lim muassasalarida bajariladigan amaliy ishlar ilk bor o‘zbek tilida rasmlari bilan ko‘rsatib berilgan. Uning kirish qismida tarjimon bog‘chalar haqida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi; “*Bu xizmat Russiya ichinda shu qadar yoshdirkim, man o‘ylayman, bu yo‘lda ishlab turg‘onlardan hech kim o‘zining qilib turgon ishini to‘g‘ri deb aytolmaydi. Har birimiz bolalarni kuzatishimiz orqali tadqiqotga qulog solmog‘imiz darkor*”. Shu bilan birga

asarda bolalar bog‘chalaridagi jismoniy tarbiya va unda qanday mashqlar bajarilishi, bolalar o‘yinlari va ularning bolalar sog‘lig‘iga ta’siri, qo‘l bilan narsalar yasash hamda unga ketadigan materiallar haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Bu nashr dunyodagi barcha bolalar bog‘chalar xodimlariga mo‘ljallangan bo‘lib, undagi ko‘rsatilgan tavsiyalar hamma xalqlarning farzandalariga mos kelganligi bois sovet hokimiyati ham dastlabki vaqtarda bu asarga juda katta ehtiyoj sezgan va ko‘p miqdorda nashrdan chiqargan.

Sovet davrida ta’lim xususan, bog‘chalar faoliyati rivojlanib borishi bilan mazkur sohaga oid tadqiqotlar ham ko‘payib bordi. Barishnikova K. va Shverdina Ye. larning asari bevosita maktabgacha tarbiya muassasalarining rahbarlariga qo‘llanma sifatida maydonga chiqarilagan[9]. Mazkur risola ham arab alifbosidagi eski o‘zbek yozuvida nashrga tayyorlanganki, bundan ko‘zlangan maqsad mahalliy xalq orasida ham bog‘chalar faoliyatini keng targ‘ib qilishdan iborat bo‘lgan. Uning kirish qismida ushbu majmuaga maktabgacha tarbiya muassasalaridagi ta’lim-tarbiya ishidagi qonun qoidalar asos bo‘lganligi, u sohaga oid masalalar tahliliga bag‘ishlangan bir necha maqolalarning to‘plami ekanligi, ularning har birida rahbarlik ishlariga alohida ahamiyat qaratilganligi aytib o‘tilgan. Maqolalarda bog‘chalardagi ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishdan tashqari, bolalarning sog‘ligini saqlash masalalari, o‘yinlar o‘tkazish, bolalarda mehnat va tabiatga muhabbat ruhini shakillantirish, farzand tarbiyasida mahalla va ota-onasi bilan hamkorlik qilish kabi dolzarb mavzular o‘rin olgan.

Sovet hukumati imkon qadar maktabgacha tarbiya sohasini taraqqiy etishiga harakat qildi va shu bois uning turli tamonlarini o‘rganishga talab ham ortib bordi. Bog‘chalarda bolalarning san’atga xususan, musiqaga bo‘lgan muhabbatini shakillantirish borasida ham mazmunli ishlar amalga oshirilgan. Ana shunday risolalardan biri Abdulina Z. tomonidan tayyorlanib “Bolalar bog‘chasi uchun ashulalar” deb nomlangan[10]. Unda maktabgacha tarbiya o‘choqlari uchun she’rlar jamlanib, bolalarda vatan tuyg‘usini shakillantirish va ularni mehnatga chiniqtirish bosh g‘oya bo‘lgan. Risolaning kirish qismida muallif ashulalarning bolalar hayotidagi o‘rni, bog‘chalarda undan foydalanishning yo‘l-yo‘riqlari, musiqa asboblari va ularning maktabgacha ta’lim mussasalarida juda kamligi, ammo, qo‘schiqlarning ularsiz ham kuylash mumkinligini aytib o‘tgan. Unda “Boqchada”, “Tong otdi”, “Yuring o‘rtoq”, “Besh yillikning to‘rt yilda”, “Qizil bayroq”, “Paxta terimi”, “Paxta terimi ashulasi”, “Birlik marshi”, “Oktyabr”, “Oktyabriyat” kabi bir qator o‘z davrining madh etuvchi she’rlar jamlangan. Demak, lotin alifbosidagi ushbu kitobcha uch ming tirajda nashr etilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston hududidagi bolalar bog‘chalarida ilk bor musiqaning o‘rgatish usullari tahlil etilgan.

O‘zbekistonda XX asrning 40 yillarida bog‘chalarning turli tomonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tarjima va mualliflik kitoblari ham ko‘payib bordi. Ana shunday kitoblardan biri T. F. Protopopovaning “Yasama o‘yinchoqlar”[11] deb nomlangan asari edi. U maktabgacha

tarbiya muassasalari uchun to‘plam bo‘lib, unda bog‘chalarda bolalar turli narsalardan buyumlar yasash texnologiyalari amaliy jihatdan ko‘rsatib berilgan. Bu risola ham lotin grafikasida yozilgan bo‘lib, uch ming nusxada chop etilgan va butun mamlakatdagi bolalar bog‘chalariga etkazilgan. Unda bolalarning yoshlariga qarab qog‘oz, karton, paxta va boshqa buyumlardan turli narsalar yasalishi chizmalar asosida ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, kichik yoshdagi bolalar uchun qog‘ozning buklash yo‘li bilan ishlanadigan yasama o‘yinchoqlar samaliyot, laylak va yulduzchali varrak va shu kabi oson yasaladigan o‘yinchoqlar tayyorlangan bo‘lsa, o‘rta va katta yoshli bolalar uchun nisbatan mehnat talab qilinadigan pirpirak gullar, savatcha, baliqlar, zambarak, paraxod, turli hayvonlar va qushlar yasash rasmlari bilan ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, kartondan, tuxum po‘chog‘idan, gugurt qutichalaridan, yog‘ochdan ishlanadigan o‘yinchoqlar yasash usullari hamda asosan katta yoshdagi bolalar uchun paxtadan yasaladigan archa, rediska, olcha, qorbobo va turli hayvonlarni yashash tartibi ham ko‘rsatib o‘tilgan. Demak, ushbu risolada maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish hamda ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash asosiy mezon qilib olingan. U bolalar bog‘chalari tarbiyachilar uchun asosiy qo‘llanma bo‘lish bilan birga barcha ota-onalar uchun ham farzandlar tarbiyasida yo‘lchi mayoq vazifasini ham bajargan.

Mazkur davrda pedagogik bilim yurtlarining yo‘nalishlari kengayib bolalar bog‘chalari xodimlarining tayyorlash ishlari birmuncha tartibga solingan. Endi bu borada ushbu o‘quv yurt talabalari uchun maxsus qo‘llanmalar ham tayloranib, talabalarga maktabgacha tarbiya muassasalari haqida bat afsil ma’lumotlar berilgan. Ana shunday asarlardan biri F.S. Levin-Shchjirina va D.V. Mendzeritskayalarning “Maktabgacha tarbiya”[12] deb nomlangan kitobi edi. Unda mualliflar pedagogik bilim yurtlari maktabgacha kurs dasturini asosiy masalalarini oydinlashtirishga va ilk bor uni yagona tizimga solishga harakat qilgan. Shu bilan birga sovet bolalar bog‘chalarining asosiy vazifalarini, bog‘chalarda bolalarni tarbiyalashning mazmuni va metodik asoslarini tahlil qilgan. Shuningdek, ushbu qo‘llanma bog‘cha tarbiyachisining jismoniy tarbiya va bolalarning axloqiy tarbiyalash, bola nutqining o‘stirish sohasida aniq bilimlar bilan qurollantiradi. Mualliflar asarning ayrim boblarini (*jami 9 ta bobdan iborat-Yo.T.*) bog‘chalarni ochish yo‘l-yo‘riqlari va ularga rahbarlik qilishning sir-sinoatlariga bag‘ishlagan. To‘plam butun bog‘chalar faoliyatini qamrab olganligi uchun unda bu muassasani qachon paydo bo‘lganligi va sabablari ham keltirilib, XIX asrda yirik fabrika sanoatining rivojlanishi bilan birga paydo bo‘lganligi ta’kidlanadi. Uning asoschisi shotlandiyalik utopist Robert Ouen bo‘lib, 1800-yilda u o‘zining Nyu-Lepark(Shotlandiya)dagi ip yigirish fabrikasi qoshida bog‘chalar tashkil etgan. U bolalar tarbiyachilarining nazaratida bo‘lib, bolalar bu erdan maktabga tayyorlangan. Umuman olganda bu to‘plamda bog‘chalar faoliyatiga oid ko‘plab ma’lumotlar berilgan bo‘lib, mualliflar talabalar bilan birga keng jamoatchilikni mazkur soha bilan tanishtirishga intilgan.

Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlarida bolalar tarbiyasi jamiyatning asosiy e'tiborga molik masalalaridan biriga aylangan. Hokimiyatga bolsheviklarning kelishi bilan u rasman hukumat idorasi sifatida o'z faoliyatini boshlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati:

1. Bola tarbiyasi// Turkiston viloyati gazeti, 1908, 89-son, 27-noyabr
2. Usmonbek Eshmuhammad o'g'li. Bolalarni o'qitish to'g'risida //Turkiston viloyatining gazeti, 1906, №3, 15-yanvar; S.A. Musulmon o'g'il-qizlar tarbiyasi haqinda //Turkiston viloyatining gazeti, 1906, №61, 62, 64; Abdusobirxo'ja Ibodxo'ja o'g'li. Tarbiya va ta'lim //Turkiston viloyatining gazeti, 1910, №66, 15-avgust; O'sha muallif. Bolalar tarbiyasi //Turkiston viloyatining gazeti, 1910, №71,10-sentyabr
3. Xoji Muin. Bolalar bog'chasi // "Mehnatkashlar tovushi", 1919 yil, 3-noyabr.
4. Abdulhamid Sulaymonov. Sho'rolar hukumati va bolalar tarbiyasi// "Ishtrokyun" 1920, 7-noyabr soni.
5. H.O'roziy. Sho'rolar hukumatida maorif ishi // "Qizil O'zbekiston", 1924, 5-dekabr soni
6. T. Orifxonov. O'zbekiston jumhuriyatida maorif darajasi // "Qizil O'zbekiston", 1924, 7-dekabr soni
7. Maktabgacha tarbiya muassasalari xususida murojaatli yo'l ko'rsatkich. Xalq maorif komissariyatining maktabgacha sho'basi tomonidan taklif qilingan. Turkiston jumhuriyatining davlat nashriyoti. T.-1922.
8. L. Shlinger. Bolalar bog'chaasida amaliy ish. R. Samat tarjimasi. O'zbekiston davlat nashriyoti, T.-1925.
9. Bar'yishnikova K., Shverdina Ye. Maktabgacha tarbiya masalasida rahbarlik materiallari majmuasi. O'zbekiston davlat nashriyoti, Samarqand-Toshkent-1927.
10. Abdulina Z. Bolalar bog'chasi uchun ashulalar. Uzdavnashr, Tosheknt-1932.
11. T. F. Protopopova. "Yasama o'yinchoqlar". Maktabgacha tarbiya muassasalari uchun to'plam. O'zSSR o'quv-pedagogik nashriyoti, Toshkent,1939.
12. F.S. Levin-Shchjirina va D.V. Mendzeritskaya "Maktabgacha tarbiya". Pedagogik bilim yurtlar uchun qo'llanma. O'z SSR o'quv-pednashr,-Toshkent,1940.